


JOURNAL OF

# NATURAL SCIENCE

<https://natscience.jdpu.uz>

2025 /№1 (18)

---



Chemistry  
Biology  
Geography

<b><u>TAHRIR HAY’ATI</u></b>	<b><u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u></b>
<b>Bosh muharrir</b> Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<b><u>Bosh muharrir</u></b> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <b><u>Tahririyat a’zolari:</u></b> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
<b>Muassasa</b> Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

---

**BIOLOGIYA O'QITUVCHILARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI  
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TIZIMI.**

*Soliyeva Gulnoza Daniyarovna*

*JDFU, Zoologiya va anatomiya kafedrasida o'qituvchisi*

*Shovqiyeva Dilrabo JDFU talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada biologiya o'qituvchisining sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini ahamiyati, qo'llash funktsiyalari va biologiya o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan. O'qitishning innovatsion faoliyatida biologik bilimlarni oshirish, o'zaro fikr almashishga qaratilgan. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda yoshlar salomatligi va farovonligini ta'minlashga oid sanogen tafakkurni rivojlantirish, ularda biologik ta'lim mazmunida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarni barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** biologiya o'quv fanlarining o'qitishning didaktik asoslari, o'qitish shakllari, kasbiy pedagogik faoliyat, sog'lom turmush tarzi kompetentlik, pedagogik imkoniyatlari.

Respublikamizda bo'lajak pedagoglarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashni innovatsion yondashuvlar asosida isloh qilish, ularda sog'lom turmush tarzi tafakkur ko'nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minotini mustahkamlashga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida “biologiya fanlarini chuqur o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va mul'timedia mahsulotlarini yangi avlodlarini yaratish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishini ta'minlash, umumta'lim maktab o'quvchilari uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish”<sup>2</sup> kabi ustuvor vazifalar

---

<sup>2</sup>. “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сонли Қарори. Қонун ҳужжатлар маълумотлар базаси.<http://lex.uz/docs/4312785>.

belgilangan. Mazkur vazifalarga asoslanib, valeologik ko'nikmalarini tarkib toptirishning kontseptual asoslari mazmunini aniqlash, talabalarni addiktiv xulqdan himoyalash va o'z hayotiy faoliyatini to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish orqali vitagen va sanogen tafakkurini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarga asoslangan metodik tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarga asoslanib, bo'lajak biologiya o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi kompetentlikni takomillashtirishning innovatsion texnologiyalarini didaktik mazmunini aniqlash, biologiya o'qitish metodikasi mazmunida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini sog'lom turmush tarzi kompetentlikni rivojlantirishning didaktik mazmunini aniqlash, biologiyani o'qitish mazmunida o'quvchilarni o'z hayotiy faoliyatini to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish orqali sanogen tafakkurini rivojlantirishga asos bo'luvchi bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga asoslangan metodik tizimni uzviylik va izchillikda boshqarish imkoniyatini beradi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchisining sog'lom turmush tarzi kompetentligini rivojlantirish muammosi ilmiy pedagogik, psixologik, tibbiyot va biologiya ta'lim mazmunida innovatsion yondashuvlar asosida tadqiq qilingan bo'lib, mazkur tadqiqot faoliyatida metodik manba bo'lib xizmat qiladi. Sog'lom turmush tarzi kompetentlik biologiya o'qituvchisidan biologik ta'lim mazmunida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib to'tirishda pedagogik uddaburonlik, innovatsion faoliyat va ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishga bo'lgan layoqatiga ega bo'lishni talab etiladi.

Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda “Biologiya o'qitish metodikasi”, fani hamda 4+2 asosida o'quv amaliyotlar tashkil etish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Mazkur fanlarni o'qitishda talabalarda kasbiy o'quv bilish faoliyatni rivojlantirish, biologik ta'lim mazmuni va tuzilmasi, zamonaviy yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzi kompetentlikka oid ta'lim mazmunini yangilash imkoniyatlari bilan tanishtiradi. Ushbu biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, o'qitishning pedagogik tamoyillar va qonuniyatlarni

bilish, o'qituvchiga maktab biologiya kursi mazmunida valeologiyaga oid tushunchalar bilan bog'liq o'quv - tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Mazkur imkoniyat biologiya o'quv fanlarida sog'lom turmush tarzi kompetentlikni tarkib toptirishning didaktik asoslarini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiqdir.

1. Biologiya o'qitishning barcha shakllarida sog'lom turmush tarzi kompetentlikni tarbiyaga oid integrasion yondashuv asosida tarkib toptirishning metodik asoslaridan foydalanish.

2. Biologik bilimlarni tiklash – biologik ta'lim mazmunida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar orqali valeologik bilimlarni tiklash, tahliliy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

3. Biologik bilimlarni yangilash – sog'lom turmush tarzi yuzasidan avval o'zlashtirgan bilimlarini kengaytirish, aniq dalillar asosida rivojlantirish.

4 Biologik bilimlarni korrektsiyalash – valeologiya yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib borish.

Mamlakatimiz va xorijdagi ilmiy tadqiqotlar va ilmiy – metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. L.N.Bashmakova, B.M.SHaripova, G.U.Kurmanovalarning tadqiqot ishlarida sog'lom turmush tarzi insonning ruhiy, jismoniy jihatdan salomatligini ta'minlovchi omil sifatida organizmning faol yashashida turli xil kasalliklardan himoya etish yo'llarini yoritib berilishi muhim ahamiyatga ega [4]. D.J.SHaripovanning tadqiqotlarida, o'quvchilarning valeologiya asoslari, gigienik tarbiyalash asosida sog'lom turmush tarzini tashkil etish muammolari yoritilgan bo'lib, gigienik tarbiyani tashkil etish yo'lidagi izlanishlar mohiyatining ochib berilishi, shuningdek gigienik tarbiyani yaxlit tizim tarzida tashkil etish borasidagi tajriba mazmunining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratilgan [6]. Zero, bu tarzidagi yondashuv tadqiqot ishining mohiyati to'g'risida aniq tassavur hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

Bizning tadqiqot ishimizda biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda valeologik kom'etentligini rivojlantirishning kompetentlik mazmunini aniqlashtirish, innovasion texnologiyalar asosida o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish, hamda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib topganlik darajasini aniqlashda o'quvchilarni kreativ faoliyatni aniqlovchi didaktik to'shiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir [3]. Mazkur didaktik to'shiriqlardan unumli foydalanish vitagen, refleksiv, salomatlikni saqlash va sanogen tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarida samarali natija berishi kuzatiladi. Tadqiqot rivojida innovasion texnologiyalarning didaktik maqsadini aniqlash va darsning tuzilmaviy loyahasini ishlab chiqishda sog'lom turmush tarzi bilimlarni mazmunan tanlay olish va jarayonga tadbiq etishning quyidagi pedagogik imkoniyatlari aniqlandi: biologiya o'qitishning barcha shakllarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmasini tarkib toptirishning metod, vosita va texnologiyalaridan samarali foydalanish; biologiya o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmasini tarkib toptirish muammosining ustuvorligini mazkur jarayonni samarali tashkil etish va rivojlantirish orqali jamiyatimizning yuksak ma'naviyatli, bilimli va salohiyatli, barkamol shaxsga bo'lgan ehtiyojini qondirilishiga zamin yaratadi[5].

Bo'lajak biologiya o'qituvchisida sog'lom turmush tarzi kompetentlikni takomillashtirishning didaktik asoslari ta'lim-tarbiya uzviyligida namoyon bo'lib, tadqiq qilinadigan ishining asosini tashkil etadi Bo'lajak biologiya o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi kompetentlikni vitagen, refleksiv, salomatlikni saqlash va sanogen tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish, bo'lajak biologiya o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi kompetentlikni didaktik funksiyalari - bilimlarni yangilash, bilimlarni korrektsiyalash, bilimlarga amal qilish, bashorat qilish, vitagen, refleksiv, salomatlikni saqlash va sanogen tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov “Biologiya o'qitish metodikasi” metodik qo'llanma) T. Bilim. -2004y.

2. Sharipova D.J. Maktab o'quvchilarining gigienik ta'lim - tarbiyasi. – Toshkent: – Medisina. 2004. – 24b.
3. Sharipova D.J. Valeologiya asoslari. «M usiqa» nashriyoti. Toshkent. – 2010. -116b.
4. Shayxova X.O., Tillaeva G.H. Sog'lom turmush tarzi va yoshlar kamoloti. -T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2007. – 77 b.
5. Ishankulova, D. (2020). Биологические особенности некоторых высших сосудистых растений водоемов Самаркандской области. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Qodirova, S. (2024). Bugungi kunda O'zbekistonning ekologik holati. Образование, наука и инновационные идеи в мире JSPU.